



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRINING
BUYRUG‘I**

2021-yil 9 - noyabr

470-son

Toshkent sh.

**Oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida
“Yil talabasi – 2021” Respublika tanlovini
yuqori saviyada o‘tkazish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldaggi PF-6155-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi”ning 169-band, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2021-yil 29-yanvarda tasdiqlangan “2021-yilda Yoshlar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tizimida amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan chora-tadbirlar dasturi”ning 6-bandida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning har tomonlama raqobatbardosh kadr sifatida shakllanishlariga shart-sharoit yaratish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, intellektual salohiyatini oshirish, ularning o‘z iqtidorlarini namoyon etishlariga imkoniyatlar yaratish, talabalik nufuzini oshirish hamda yuqori natijalarga erishgan talaba-yoshlarni rag‘batlantirish maqsadida “Yil talabasi – 2021” Respublika tanlovi (keyingi o‘rinlarda – Tanlov) o‘tkazilsin.

2. Tanlovnin o‘tkazish bo‘yicha vazirlik Tashkiliy qo‘mitasi tarkibi 1-ilovaga muvofiq, tanlov Nizomi 2-ilovaga muvofiq, tanlovnin o‘tkazish sxemasi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tanlovnin o‘tkazish bo‘yicha vazirlik Tashkiliy qo‘mitasi (Y.Absaatov)zimmasiga:

tanlovnin yosh avlodni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalg‘ etish, ularda axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta’minlash masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan 5 ta ijobjiy tashabbusni hayotga tatbiq etish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldaggi PF-6155-son Farmoni bilan

tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi”da belgilangan vazifalar mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda tashkil etish;

tanloving barcha bosqichlarini karantin qoidalariga qat’iy amal qilgan holda uyushqoqlik bilan o‘tkazilishini ta’minalash;

tanlovnin yuqori saviyada va keng qamrovda tashkillashtirish maqsadida ijtimoiy tarmoqlar hamda oliy ta’lim muassasalarining veb-saytlarida keng targ‘ib qilish;

tanloving oliy ta’lim muassasalari bosqichini talab darajasida o‘tkazilishini muvofiqlashtirish va zarur hollarda tashkiliy-uslubiy yordam ko‘rsatish hamda shaffoflik ta’minalishini nazoratga olish;

tanloving Respublika bosqichi komissiyasi tarkibini tanlovnin o‘tkazish bo‘yicha hamkor tashkilotlarning yuqori malakali mutaxassislaridan iborat shaklda bo‘lishini ta’minalash;

tanlov 7 ta nominatsiyasining har biri bo‘yicha oliy ta’lim muassasasida g‘olib bo‘lgan ishtirokchilar (7 nafar) to‘g‘risidagi ma’lumotlar yig‘majildini jamlash va ularning ro‘yxatini tuzgan holda tanlov komissiyasiga taqdim etish vazifalari topshirilsin.

4. Oliy ta’lim muassasalari rektorlari va filiallar direktorlari tanlov nizomiga kiritilgan o‘zgartirishlardan kelib chiqqan holda 7 ta nominatsiyaning har biri bo‘yicha g‘olib bo‘lgan ishtirokchilar (7 nafar) to‘g‘risidagi ma’lumotlar yig‘majildini belgilangan muddatlarda Tashkiliy qo‘mitaga taqdim etsin.

5. Iqtisodiyot boshqarmasi (M.Hamrayev) tanloving Respublika bosqichini yuqori saviyada tashkil etish va o‘tkazish hamda g‘oliblarni taqdirlash bilan bog‘liq bo‘lgan moliyaviy xarajatlarni vazirlikning Oliy ta’lim muassasalarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplasin.

6. Ushbu buyruq ijrosi nazorati vazir o‘rinbosari Y.Absoatov zimmasiga yuklansin.

Vazir

A.Toshkulov





Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining
2021-yil 9 -noyabrdagi 470 -son
buyrug'iiga 1-ilova

Tanlovnii o'tkazish bo'yicha vazirlik Tashkiliy qo'mitasi tarkibi

Absoatov Yusuf Qodirovich	O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining o'rinnbosari, <i>Tashkiliy qo'mita raisi</i>
Bazarov Otabek Xasanboyevich	O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Ma'naviy-axloqiy tarbiya boshqarmasi boshlig'i, <i>Tashkiliy qo'mita raisi o'rinnbosari</i>
A'zolar:	
Usmonov Sardor Uraimjonovich	O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Axborot xizmati rahbari
Hamrayev Maqsud Saidaxmadovich	O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Iqtisodiyot boshqarmasi boshlig'i
Suvanov Ilhom Abdihalilovich	O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari v.b., <i>Tashkiliy qo'mita kotibi</i>
Sattarov Umidulla Ulashovich	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Ma'naviy-axloqiy tarbiya boshqarmasi bosh mutaxassisi
Choriyev Ikrom Abdishukurovich	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Ma'naviyat va ma'rifat markazi direktor o'rinnbosari v.b.
Abdullayeva Dilrabo Zubayevna	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Ma'naviyat va ma'rifat markazi xodimi
Xolmaxmatov Azim Hazratqulovich	Yoshlar ishlari agentligi Ta'lim muassasalaridagi yoshlar bilan ishlash boshqarmasi boshlig'i (<i>kelishuv asosida</i>)



Oliy ya o'rta maxsus ta'lim vazirining
2021-yil 9 -noyabrdagi 470 -son
buyrug'iga 2-ilova

**O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarini talabalarini o'rtasida
o'tkaziladigan "Yil talabasi – 2021" tanlovining
NIZOMI**

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, respublikamizdagi barcha oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar o'rtasida "Yil talabasi – 2021" tanlovini (keyingi o'rnlarda – Tanlov) o'tkazish tartibini belgilaydi.

2. Tanlovning asosiy maqsadi: jamiyatga, davlatga yetuk yosh, raqobatbardosh kadrlarni yetishtirib berish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, intellektual salohiyatini oshirish, oliy o'quv yurtlaridagi iqtidorli talabalarni aniqlash, ularning o'z salohiyatlarini namoyon etishlariga imkoniyatlar yaratish, jamoatchilik, fidoyilik fazilatlarini shakllantirish, talabalik nufuzini oshirish hamda rag'batlantirishdan iborat.

3. Tanlov bosqichma-bosqich, ushbu buyruqning 3-ilovasidagi sxemaga muvofiq (tadbir zarur hollarda pandemiya davri talabalaridan kelib chiqqan holda onlayn tarzda o'tkaziladi) quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

a) Tanlovning birinchi bosqichi har bir oliy ta'lim muassasasida ikki turda tashkillashtiriladi:

birinchi tur – har bir fakultet (kesimi)da o'tkaziladi;

ikkinchi tur – oliy ta'lim muassasasi miqyosida, fakultetlar kesimida g'olib bo'lgan ishtirokchilar o'rtasida o'tkaziladi.

b) Tanlovning respublika bosqichi (onlayn tarzda) joriy yilning dekabr oyida o'tkaziladi.

4. Quyidagilar tanlov o'tkazishning asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) birinchi – oliy ta'lim muassasasi bosqichida rektor (direktor) boshchiligidagi tegishli mutaxassislar tarkibidan tanlov komissiyasi tashkil etilib, ular tomonidan:

har bir oliy ta'lim muassasasida tashkil etilgan ishchi guruh tomonidan o'rganish asosida tanlovga tavsiya etilgan talabalarining taqdimotini tashkil etish;

tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan fanlarni o'zlashtirish natijalari, jamoatchilik ishlari va erishilgan yutuqlar aks etgan hujjatlarni, talabalarining ilmiy va ijodiy ishlarini qabul qilish va o'rganish asnosida tahlil etish;

tanlov ishtirokchilarining darslardagi ishtiroki, faollik darajasi, yetakchilik qobiliyatini kuzatish va baholash hamda g'olib deb topilgan ishtirokchiga tanlovning respublika bosqichida qatnashishi uchun tavsiyanoma berish;

b) ikkinchi, respublika bosqichida Tashkiliy qo'mita va tanlov komissiyasi tomonidan:

oliy ta’lim muassasalaridan taqdim etilgan tavsiya hujatlarini va tanlov ishtirokchilarining taqdimot materiallarini qabul qilish, o’rganish va tahlil etish asosida g’oliblarni aniqlash;

tanlov g’oliblarining moddiy va ma’naviy rag’batlantirilishini tashkil etish;

tanlov o’tishi va natijalarining ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini tashkil etish ishlari amalga oshiriladi.

5. Tanlov quyidagi nominatsiyalar bo‘yicha o’tkaziladi:

a) “**Yilning eng faol bilimdon talabasi**” (o‘z mutaxassisligi bo‘yicha), bunda talabaning fanlarni o’zlashtirishi va o‘quv jarayonlardagi ishtiroki va faolligi, chop etilgan maqola va tezislari hamda ularning mazmun-mohiyati, dolzarbligiga oid ishlar ko‘rib chiqiladi;

b) “**Yilning eng faol targ‘ibotchi talabasi**”, bunda talabaning oliy ta’lim muassasasi jamoat ishlaridagi va boshqa jamoat tashkilotlari faoliyatidagi amaliy ishtiroki, faollik darajasi, targ‘ibotchi sifatidagi namunaviy ishlari, tashkilotchilik qobiliyati va shu asosda o‘zi tashkil etgan tadbirlar mazmuni, erishgan yutuqlari ko‘rib chiqiladi;

c) “**Yilning eng faol ixtirochi-innovator talabasi**”, bunda joriy yilda talaba tomonidan yaratilgan ilmiy ishlar, ixtiolar, innovatsion g’oyalari, ratsionalizatorlik takliflari, ularning yangiligi, dolzarbliyi va ilmiy ahamiyati ko‘rib chiqiladi;

d) “**Yilning eng faol sportchi talabasi**”, bunda joriy yilda talabaning xalqaro va respublika miqiyosidagi o’tkazilgan sport musobaqalaridagi yutuqlari va erishgan natijalari ko‘rib chiqiladi;

e) “**Yilning eng faol bloger talabasi**”, bunda talabaning joriy yilda ijtimoiy tarmoqlarda o‘zi yaratgan ta’lim olishga talaba-yoshlarni targ‘ib qiluvchi ishlanmalari va oliy ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlarni yoritishda faollik darajasi hamda ushbu sohada erishgan yutuqlari ko‘rib chiqiladi;

f) “**Yilning eng faol ijodkor talabasi**”, bunda talabaning o‘zi tanlagan mutaxassisligi yo‘nalishidan qat’iy nazar musiqa, adabiyot, san’at va teatr sohasidagi qiziqishlari va joriy yilda erishgan natijalari ko‘rib chiqiladi;

g) “**Yilning eng faol tadbirkor talabasi**” (xotin-qizlar uchun), bunda joriy yilda mustaqil ravishda tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘ygan talaba-qizlarning erishgan yutuqlari hamda yoshlarni ish bilan ta’milaganlik darajasi ko‘rib chiqiladi.

II. Tanlovning oliy ta’lim muassasasidagi bosqichini tashkil etish tartibi

6. Tanlovning oliy ta’lim muassasasidagi bosqichi noyabr oyida o’tkaziladi.

7. Tanlovning oliy ta’lim muassasasi bosqichining ikkita turda o’tkazilganligi to‘g’risidagi yig‘ilish (har bir tur bo‘yicha alohida) bayonnomalari tanlov komissiyasi a’zolari imzosi bilan tasdiqlanadi va ikkita bayonnomma g’olib to‘g’risidagi ma’lumotlar yig‘majildi bilan birgalikda Respublika tashkiliy qo‘mitasiga taqdim etiladi.

8. Tanlov komissiyasi oliy ta’lim muassasasining ma’muriy-boshqaruvi xodimlari, mutaxassis-o‘qituvchilar, hamkor tashkilotlardan jalb etilgan mutaxassislar, jamoat tashkilotlari vakillaridan iborat tarkibda tashkil etiladi.

9. Tanlov komissiyasi quyidagi funksiyalarni bajaradi:
tanlovnинг олий та’лим мұассасасындағы босқичи ахборот та’минотини ташкіл қилади;

tanlov ishtirokchilaridan buyurtmanomalar va materiallarni qabul qilishni ташкіл етади;

tanlov ishtirokchisi тақдим етган ھүjjatlarni hamda darslarda va jamoat ishlаридаги ishtiroki sifatini baholaydi;

10. Tanlovda олий та’лим мұассасасыда uzliksiz (akademik ta’tilsiz) kunduzgi та’лим шақлida o‘qib kelayotgan 2, 3, 4-bosqich talabalari ishtirok etishi mumkin.

11. Tanlovnинг олий та’лим мұассасасы bosqichida ishtirok etish istagini bildirgan talabalar томондан тақдим etilgan ھүjjatlar to‘plami tegishli fakultet dekanati томондан saralanadi va noyabr oyining ikkinchi o‘n kunligida ھүjjatlar to‘plamini tanlov komissiyasiga тақдим etiladi.

12. Ishtirokchiga tegishli bo‘lgan quyidagi ھүjjatlar to‘plami fakultet dekanati томондан тауырланади va tanlov komissiyasiga тақдим etiladi:

tanlov ishtirokchisining qobiliyati, fanlarni o‘zlashtirish darajasi, yetakchilik qobiliyati, erishgan yutuqlari, darslardagi faol ishtiroki, talabalarga o‘rnak bo‘ladigan jihatlari va jamoat ishlаридаги faoliyati haqidagi ma’lumotlar bayon etilgan ikki betdan oshmaydigan hajmdagi taqdimnoma;

tanlov ishtirokchisining fanlarni o‘zlashtirish natijalari aks etgan ھүjjatlar (baholarni qayd etish varaqalari, talabaning baholarni o‘zlashtirish sinov daftarchasi) nusxalari;

tanlov ishtirokchisining nashr etilgan ilmiy, ilmiy-uslubiy, ijodiy ishlari, ularga tegishli mutaxassislardan olingan taqrizlar bilan birga va ijodiy ishlarning elektron shakli;

xalqaro va respublikamiz miqiyosida o‘tkazilgan tadbirlar, tanlovlarda faxriy yorliqlar va diplomlar bilan taqdirlanganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar (nusxalari ilova qilinadi);

grantlarda ishtirok etganligi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma, grantning nomi, moliyalashtirish hajmi, ishtirokning shakli va darajasi ko‘rsatiladi;

konferensiyalardagi ishtiroki haqidagi ma’lumotlar, ilmiy ishlar ro‘yxati va ilmiy ishlar nusxalari ilova sifatida тақдим etiladi;

ھүjjatlar to‘plamiga кiritilgan materiallar va axborotlar joriy yil davomida chop etilgan bo‘lishi lozim.

13. Tanlov komissiyasi, ishtirokchilarning ھүjjatlar to‘plami, darslarda va jamoat ishlарida ishtiroki sifatini, shuningdek, ishtirokchi bilan individual o‘tkazilgan suhabat doirasida olingan ma’lumotlarni baholash natijalarini hisobga olgan holda, har bir nominatsiya bo‘yicha g‘olib (1, 2, 3-o‘rin)larni aniqlaydi va birinchi o‘rin sovrindorlarini tanlovnинг respublika bosqichida qatnashish uchun tavsiya етади.

14. Nominatsiyalar bo‘yicha 1, 2 va 3-o‘rnlarni egallagan g‘olib va sovrindorlar олий та’лим мұассасасындағы faxriy yorlig‘i bilan mukofotlanadi hamda tegishli ravishda 1-o‘rin sohibi bazaviy hisoblash miqdorining 8 barobari miqdorida, 2-o‘rin sohibi bazaviy hisoblash miqdorining 6 barobari miqdorida va

3-o‘rin sohibi bazaviy hisoblash miqdorining 4 barobari miqdorida moddiy rag‘batlantiriladi.

15. Moddiy rag‘batlantirish uchun pul mablag‘lari oliy ta’lim muassasasi rektorining buyrug‘i asosida oliy ta’lim muassasalarining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan ajratiladi.

III. Tanlov tashkilotchilar va ta’sischilar

16. Tanlovning respublika bosqichi Tashkiliy qo‘mita tomonidan har yili dekabr oyida o‘tkaziladi.

17. Quyidagilar Tashkiliy qo‘mitaning asosiy vazifalari hisoblanadi:
tanlovni o‘tkazish muddatlarini belgilash (pandemiya davri talablaridan kelib chiqqan holda, masofaviy-onlayn shaklida) va uni yuqori darajada o‘tkazish;

har bir nominatsiya bo‘yicha alohida tanlov komissiyasi (ekspertlar guruhi) tarkibini shakllantirish;

har bir nominatsiya bo‘yicha baholash mezonlarini ishlab chiqish;

18. Tashkiliy qo‘mita, qoidaga ko‘ra, rais, rais o‘rindbosari, Tashkiliy qo‘mita kotibi va a’zolaridan iborat tarkibda shakllantiriladi.

Tashkiliy qo‘mita raisi, rais o‘rindbosari va kotibi uning a’zolari orasidan saylanadi.

19. Tashkiliy qo‘mita raisi:

Tashkiliy qo‘mita majlisi kun tartibini belgilaydi va uni o‘tkazadi;

Tashkiliy qo‘mita qarorlarini tasdiqlaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi;

Tashkiliy qo‘mita a’zolariga yuklangan vazifalarni bajarish bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtiradi.

20. Tashkiliy qo‘mita a’zolari quyidagi huquqlarga ega:

Tashkiliy qo‘mita majlislarida ko‘rib chiqilayotgan masalalarni muhokama qilishda va hal etishda qatnashish;

ko‘rib chiqilayotgan masalalar bo‘yicha xulosalar taqdim etish.

Tashkiliy qo‘mita faoliyatida ishtirok etish jamoatchilik asosida amalga oshiriladi.

21. Tashkiliy qo‘mita majlisini rais yoki rais o‘rindbosari boshqaradi.

Tashkiliy qo‘mita majlisi a’zolarining uchdan ikki qismi qatnashganda vakolatli hisoblanadi.

22. Tashkiliy qo‘mita kotibi:

Tashkiliy qo‘mita majlisiga barcha zarur hujjatlarning o‘z vaqtida tayyorlanishini ta’minlaydi;

Tashkiliy qo‘mita raisi bilan majlisning o‘tkaziladigan joyi va vaqtini kelishadi;

Tashkiliy qo‘mita a’zolarini majlisning o‘tkazilish sanasi, joyi va kun tartibidan xabardor qiladi;

Tashkiliy qo‘mita majlislarining kun tartibidagi masalalar bo‘yicha o‘tkazilishini tashkil etadi;

Tashkiliy qo‘mita majlisi bayonnomalarini rasmiylashtiradi va tasdiqlangandan so‘ng Tashkiliy qo‘mita a’zolariga va manfaatdor tashkilotlarga yuboradi.

23. Tashkiliy qo‘mita qarori a’zolarning ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo‘lganda Tashkiliy qo‘mita raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

24. Tashkiliy qo‘mitaning ish tartibi u tasdiqlaydigan reglament asosida belgilanadi.

25. Tanlovning ta’sischisi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hisoblanadi.

26. Ta’sischi tanloving barcha bosqichlarini tashkillashtirish va o‘tkazish jarayonida Tashkiliy qo‘mita tomonidan qabul qilingan qarorlar ijrosini ta’minalashda bevosita hamkorlik qiladi va o‘z vakillarining Tashkiliy qo‘mita a’zosi sifatida samarali ishlashi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

IV. Tanlovning Respublika bosqichini o‘tkazish

27. Tanlov komissiyalarining har bir nominatsiya bo‘yicha tarkiblari Respublika Tashkiliy qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

28. Tanlov komissiyalari tanloving Respublika bosqichiga taqdim etilgan ishtirokchilarining hujjatlarini 10 ish kuni mobaynida ko‘rib chiqadi hamda har bir nominatsiya bo‘yicha komissiya a’zolari tomonidan ishlab chiqilgan mezonlar asosida tanlov ishlari baholash orqali har bir nominatsiya bo‘yicha g‘oliblar (1, 2 va 3-o‘rin) aniqlanadi. Tanlov komissiyalari majlislari bayonnomalari Tashkiliy qo‘mita raisi tomonidan tasdiqlanadi.

29. Tanlovning Respublika bosqichida har bir nominatsiyalar bo‘yicha 1, 2 va 3-o‘rin sohiblari bo‘lgan ishtirokchilar tanlov statuetkasi, guldasta, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining tegishli darajadagi diplomlari va 1-o‘rin sohibi bazaviy hisoblash miqdorining 15 barobari miqdorida pul mukofoti, 2-o‘rin sohibi bazaviy hisoblash miqdorining 10 barobari miqdorida pul mukofoti hamda 3-o‘rin sohibi bazaviy hisoblash miqdorining 8 barobari miqdorida pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

30. Tanlov g‘oliblarini moddiy rag‘batlantirish O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining buyrug‘i asosida oliy ta’lim muassasalarini rivojlanantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

31. Tanlov g‘oliblari oliy ta’lim muassasalarining homiy tashkilotlari tomonidan qo‘srimcha ravishda rag‘batlantirilishi mumkin.

32. Tasarrufida oliy ta’lim muassasalarini bo‘lgan vazirliklar va idoralar o‘z hisoblaridan tanlov g‘oliblarini qo‘srimcha ravishda moddiy rag‘batlantirishga haqlidirlar.

33. G‘oliblarni mukofotlash tadbiri tanloving Tashkiliy qo‘mita qarori asosida belgilangan muddatda tantanali ravishda o‘tkaziladi.

34. Tanlovga taqdim etilgan hujjatlar qaytarilmaydi.

V. Yakuniy qoidalar

35. Mazkur nizom talablarini buzgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.



Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining
2021-yil 9 -noyabrdagi 470 -son
buyrug'iiga 3-ilova

“Yil talabasi – 2021” tanlovini o'tkazish S X E M A S I

Bosqichlar

Tadbirlar

O'tkazish muddatlari

I bosqich Oliy ta'lim muassasasi bosqichi	<ol style="list-style-type: none">1. Tanlov komissiyasining tarkibini shakllantirish va tasdiqlash.2. Tanloving oliy ta'lim muassasasi bosqichi axborot ta'minotini tashkil etish.3. Ishtirokchilardan ariza va hujjatlarni qabul qilishni tashkil qilish.4. Tanlov komissiyasi tomonidan ishtirokchilar taqdim etgan hujjatlarni ko'rib chiqish.5. Tanloving oliy ta'lim muassasasi bosqichi g'oliblarini aniqlash.6. G'oliblarga tanloving respublika bosqichida ishtiroy etish uchun tavsiyanomalar berish.	<ol style="list-style-type: none">1. 10-noyabr – 12-noyabr2. 10-noyabr – 20-noyabr3. 12-noyabr – 20-noyabr4. 20-noyabr – 25-noyabr5. 25-noyabr – 27-noyabr6. 27-noyabr – 30-noyabr
II bosqich Respublika bosqichi	<ol style="list-style-type: none">1. Respublika tashkiliy qo'mitasining tarkibini shakllantirish va tasdiqlash.2. Oliy ta'lim muassasalaridan tanloving oliy ta'lim muassasasi bosqichida 1-o'rinni egallab g'olib bo'lgan nomzodlarning hujjatlarini qabul qilish.3. Tanlovgaga kelib tushgan hujjatlarni ko'rib chiqish.4. Yo'nalişlar bo'yicha tanlov g'oliblarini aniqlash.5. Tanlov g'oliblarini mukofotlashni tantanali vaziyatda o'tkazish.6. Tanloving o'tishini ommaviy axborot vositalarida keng yoritishni tashkil etish.	<ol style="list-style-type: none">1. 30-noyabr – 2-dekabr2. 1-dekabr – 6-dekabr3. 10-dekabr – 15-dekabr4. 15-dekabr – 25-dekabr5. Tashkiliy qo'mita qaroriga ko'ra belgilangan muddatda6. Jarayonlar davomida